



## THE INFLUENCE OF NATIONAL IDENTITY AWARENESS AND HISTORICAL MEMORY ON THE TRANSFORMATION OF SOCIAL MENTALITY

*Shokhista Tulkinovna Yuldosheva*  
Researcher, Department of Philosophy  
Tashkent State University of Economics  
Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** oila, mahalla, islohotlar, xorij tajribasi, jamiyat taraqqiyoti, oila muhiti, oilaviy tarbiya, huquqiy kafolat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

**Received:** 25.06.26

**Accepted:** 26.06.26

**Published:** 27.06.26

**Abstract:** O‘zbekistonda oila va mahalla institutining tarixi va rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-falsafiy, madaniy va huquqiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, ular milliy davlat qurilishi va ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta‘minlashda tarixiy jihatdan doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu institutlar jamiyatda qadimdan mavjud bo‘lib, ular orqali ijtimoiy intizom, axloqiy nazorat, jamoaviy birdamlik va huquqiy madaniyat avloddan-avlodga uzatilgan. Ularning shakllanishi va transformatsiyasi O‘zbekiston tarixining turli bosqichlarida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatiga mos ravishda turlicha tus olgan. Shu jihatdan ularni qadimgi davrlar, islomiy uyg‘onish asri, sovet davri va mustaqillikdan keyingi zamonaviy davr doirasida tizimli tarzda nazariy tahlil etish zaruratga aylangan.

## O‘ZBEKISTONDA OILA VA MAHALLA INSTITUTINING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Shoxista To‘lqinovna Yo‘ldosheva*  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Falsafa” kafedrasida tadqiqotchisi  
Toshkent, O‘zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** oila, mahalla, islohotlar, xorij tajribasi, jamiyat taraqqiyoti, oila muhiti,

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda oila va mahalla institutining tarixi va rivojlanish

oilaviy tarbiya, huquqiy kafolat, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

bosqichlari ijtimoiy-falsafiy, madaniy va huquqiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda shakllangan bo'lib, ular milliy davlat qurilishi va ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda tarixiy jihatdan doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu institutlar jamiyatda qadimdan mavjud bo'lib, ular orqali ijtimoiy intizom, axloqiy nazorat, jamoaviy birdamlik va huquqiy madaniyat avloddan-avlodga uzatilgan. Ularning shakllanishi va transformatsiyasi O'zbekiston tarixining turli bosqichlarida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatiga mos ravishda turlicha tus olgan. Shu jihatdan ularni qadimgi davrlar, islomiy uyg'onish asri, sovet davri va mustaqillikdan keyingi zamonaviy davr doirasida tizimli tarzda nazariy tahlil etish zaruratga aylangan.

---

## ИСТОРИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ИНСТИТУТА СЕМЬИ И МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Шохиста Тўлқиновна Йўлдошева*

*Исследователь кафедры «Философия»*

*Ташкентский государственный экономический университет*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** семья, махалья, реформы, зарубежный опыт, социальное развитие, семейная среда, семейное воспитание, правовая гарантия, правовое сознание, правовая культура.

**Аннотация:** История и этапы развития семейных и махальских институтов в Узбекистане неразрывно связаны с социально-философскими, культурными и правовыми процессами, которые исторически всегда играли важную роль в обеспечении стабильности национальной государственности и социального развития. Эти институты существовали в обществе с древних времен, посредством которых из поколения в поколение передавались социальная дисциплина, моральный контроль, коллективная солидарность и правовая культура. Их формирование и трансформация принимали различные формы в соответствии с политической, экономической и культурной ситуацией общества на разных этапах истории Узбекистана. В связи с этим возникла необходимость систематического

теоретического анализа этих институтов в рамках античности, эпохи исламского возрождения, советской эпохи и современного периода после обретения независимости.

---

**Kirish.** O‘zbekistonda oila va mahalla institutining tarixi va rivojlanish bosqichlari ijtimoiy-falsafiy, madaniy va huquqiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, ular milliy davlat qurilishi va ijtimoiy taraqqiyotning barqarorligini ta‘minlashda tarixiy jihatdan doimo muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Bu institutlar jamiyatda qadimdan mavjud bo‘lib, ular orqali ijtimoiy intizom, axloqiy nazorat, jamoaviy birdamlik va huquqiy madaniyat avlodan-avlodga uzatilgan. Ularning shakllanishi va transformatsiyasi O‘zbekiston tarixining turli bosqichlarida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy holatiga mos ravishda turlicha tus olgan. Shu jihatdan ularni qadimgi davrlar, islomiy uyg‘onish asri, sovet davri va mustaqillikdan keyingi zamonaviy davr doirasida tizimli tarzda nazariy tahlil etish zaruratga aylangan.

Qadimgi davrlarda, xususan, ilohiy-huquqiy tizimlar hukmron bo‘lgan sharoitda, oila – ijtimoiy-iqtisodiy birlik sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa, mahalla – ibtidoiy jamoa tuzumining merosxo‘ri sifatida yerga egalik qilish, mehnat taqsimoti va jamoaviy muhofaza kabi funksiyalarni bajargan. Zardushtiylik, shamanlik va boshqa qadimiy dunyoqarashlarda oilaning qadriyatlar yetkazuvchilik va urf-odatlar tayanch instituti sifatida talqin etilganligi kuzatiladi. Islom dinining kirib kelishi bilan esa, oila va mahalla institutlari yangi diniy-huquqiy asosda mustahkamlanib, shariat normalariga tayanadigan mustaqil ijtimoiy va huquqiy subyektlarga aylandi. Mahalla masjidi, mahalla oqsoqollari, imom-xatiblar va boshqa diniy-ijtimoiy rahnamolar orqali oila va jamiyat o‘rtasidagi aloqalar tartibga solingan [1; 94-97].

**Asosiy qism.** O‘rta asrlar Sharq madaniyati taraqqiyoti davrida, xususan, Movarounnahrda mahalla nafaqat diniy-ijtimoiy, balki ilmiy va madaniy markazga aylangan. Mahalla hududida madrasalar, kutubxonalar, ziyoratgohlar va boshqa ma‘naviy-ma‘rifiy maskanlar faoliyat yuritgan. Shu sababli mahalla jamoalari ko‘p hollarda bilim, axloq va huquqiy qadriyatlar markaziga aylangan. Ayniqsa, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy singari mutafakkirlar o‘z asarlarida oila va mahallani jamiyat barqarorligi va axloqiy komillikning kafolati sifatida e‘tirof etganlar [2; 41-64].

Sovet davrida esa oila va mahalla institutlari tub o‘zgarishlarga duch keldi. Bu davrda diniy asoslarning siqib chiqarilishi, mahalla institutining faqat ma‘muriy va siyosiy vositaga aylantirilishi, oilaning esa gender rollari jihatidan yangicha talqin qilinishi natijasida ushbu institutlarning mazmuni sezilarli darajada transformatsiyaga uchradi. Shu bilan birga, davlat

tomonidan oila institutining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi, ayollarning mehnat faoliyatiga keng jalb etilishi, bolalar bog'chalari va maktablarning rivoji oila va mahalla funksiyalarini qayta taqsimladi. Bu jarayonda ijtimoiy-huquqiy funksiyalar ma'lum darajada markazlashgan, mahallaning esa jamoaviy faolligi pasaygan [3; 58-64].

Mustaqillik yillarida esa oila va mahalla institutlari yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilishi, "Mahalla to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, "Oila kodeksi" kabi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar ushbu institutlarning mustahkam huquqiy maqomga ega bo'lishini ta'minladi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan islohotlar doirasida "Oila – mahalla – maktab" tamoyili, "Mahallabay ishlash" konsepsiyasi orqali mahalla institutiga yangi ijtimoiy boshqaruv mexanizmi sifatida yondashilmoqda. Mahalla raislari, xotin-qizlar faollari, profilaktika inspektorlarining integratsiyalashuvi oila va mahalla o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayni paytda, bu institutlar fuqarolarning muammolarini joyida hal etish, ehtiyojmandlarni aniqlash, huquqiy maslahatlar berish, gender tenglikni ta'minlash, ijtimoiy yordam ko'rsatish kabi ko'plab funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy-huquqiy makonga aylangan[4; 33-57].

O'zbekiston taraqqiyoti kontekstida oila va mahalla institutlarining rivojlanish bosqichlari ijtimoiy tizimning institutsional barqarorligi, madaniy merosning saqlanishi va huquqiy demokratik jamiyat qurilishi yo'lida muhim omil sifatida qaralmoqda. Ularning o'zaro uyg'unlashuvi, qadimiy tajriba va zamonaviy boshqaruv texnologiyalari asosida takomillashuvi ijtimoiy islohotlarning barqarorligini ta'minlovchi kuchli ichki omilga aylangan. O'zbekistonning huquqiy tarixida mahalla va oila institutlari qadimiy ijtimoiy birliklar sifatida e'tirof etiladi. Biroq ularning huquqiy tabiatini tahlil qilishda ko'plab tadqiqotchilar bu institutlarning mohiyatiga emas, balki tashqi tashkiliy shakliga urg'u bergan. Xususan, Rustamjon Urinboyev mahalla institutini "ijtimoiy nazorat vositasiga aylangan va davlat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy boshqaruv tizimi" sifatida tasvirlaydi[4; 33-57]. Uning ta'kidlashicha, "Mahalla ijtimoiy normativlar, huquqiy me'yorlar va farovonlik paradigmasi doirasida shakllangan boshqaruvning sintezlashgan shaklidir" [4; 33-57]. Mazkur yondashuv, bir qarashda, sotsiologik va funksionalistik talqinga asoslanadi, ammo huquq falsafasi nuqtai nazaridan uning noaniqligi shundaki, u mahalla institutining axloqiy legitimligi, normativ-aksialogik asoslari va erkin irodaga asoslangan fuqarolik subyektivligiga yetarlicha e'tibor bermaydi. Mahalla faoliyatini faqat "ijtimoiy boshqaruv" yoki "avtoritar nazorat" doirasida talqin qilish G.Gegelning huquq falsafasi doirasidagi "erkin ijtimoiy ong" g'oyasiga zid keladi. Chunki Gegel nazarida huquq bu "axloqiylikning ob'ektivlashgan shakli"dir va uning vositasi fuqarolik irodasi erkinligi bilan belgilanadi.

Shuningdek, Timur Dadabaev mahallani “Xalq xotirasining institutsional formasi” sifatida baholab, uni ko‘proq kollektiv identitetning saqlovchisi sifatida ko‘rsatadi[5; 181-196]. U yozadi: “Mahalla tarixiy jihatdan turli etnik va diniy guruhlarini umumiy hududiy birlikda birlashtirgan yagona ijtimoiy struktura bo‘lib, davlat uni o‘zining legitimligini mustahkamlash uchun doimiy manipulyatsiya qilgan” [5; 181-196]. Bu yondashuv genealogik jihatdan qimmatli bo‘lsa-da, u ham huquqning gnoseologik va aksiologik mohiyatini chuqur ochib bermaydi. Masalan, “identitet” tushunchasi orqali normativ huquqiy qadriyatlarining shakllanishi qanday kechayotgani, huquqiy ong va axloqiy ong o‘rtasidagi dialektik ziddiyatlar bu modelda ko‘zga tashlanmaydi. Bundan tashqari, Urinboyev yana bir maqolasida mahallani “davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘prik” deb ataydi[6; 157-178]. Unga ko‘ra, “mahalla endilikda davlat tuzilmasiga qisman kiritilgan, ammo ayrim hollarda fuqarolik jamiyatining elementi sifatida ham faoliyat yuritadi”[6;157-178]. Biroq bu fikrda huquqiy subyektivlikka oid aniq mezonlar yo‘q. Huquq falsafasi nuqtai nazaridan, subyektiv huquqlar ijtimoiy me‘yorlar va davlat vakolatlari o‘rtasida erkin tanlov asosida shakllanishi lozim. Garchi mahalla “sintezlangan” tuzilma bo‘lsa ham, uning legitimligi faqat tashqi qonunchilik asosida emas, balki ichki aksiologik asosda (ya’ni adolat, tenglik, axloqiy majburiyat) shakllanishi kerak.

Shu bilan birga, Sabina Insebayeva mahallani “an’anaviy G‘arbdagi fuqarolik jamiyati tushunchasidan farqli ijtimoiy institut” sifatida baholab, uni “sotsializatsiya vositasi” deb ataydi[7; 97-115]. Bu yondashuv axloqiy-falsafiy nuqtai nazardan muhim, lekin u ham huquq va ijtimoiy kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatni erkinlik mezonlari bilan baholamaydi. Mahalla kuch va tartibot vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy erkinlik va fuqarolik qatnashuvi negizida faoliyat yuritmo‘g‘i lozim. Shu boisdan, huquq falsafasida muhim bo‘lgan “Kuch orqali huquq emas, huquq orqali kuch” prinsipiga zid keluvchi har qanday strukturaviy gibrid, falsafiy jihatdan tanqidiy yondashuvni talab qiladi.

O‘zbekistonda oila va mahalla institutlarining huquqiy shakllanishi masalasida mavjud ilmiy qarashlar asosan tarixiy-genealogik va ijtimoiy nazorat paradigmatlari doirasida shakllanib kelmoqda. Xususan, mualliflar bu institutlarning "ijtimoiy amaliyot va an’anaviy boshqaruv" sifatidagi rolga urg‘u berib, ularning mohiyatini ko‘proq tarixiy va funksional nuqtai nazardan yoritadilar. Biroq bu yondashuvlar huquq falsafasining ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatlarini yetarli darajada e‘tiborga olmaydi. Masalan, huquqiy ontologiya nuqtai nazaridan qaraganda, oila va mahalla institutlari oddiy ijtimoiy tizimlar emas, balki huquqiy mavjudlikka ega bo‘lgan, axloqiy va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘langan ijtimoiy birliklardir. Ularning "bo‘lish" sababini faqat tarixiy evolyutsiyada emas, balki huquqiy mavjudot sifatida jamiyatdagi axloqiy-ma‘naviy asoslarda izlash zarur. Bu jihat, G.V.F. Hegel tomonidan "huquq mohiyatiga

aylanadigan axloqiylik" deb ifodalangan. Shu nuqtai nazardan, oila va mahalla institutlari jamiyatda inson erkinligi va adolatni ro'yobga chiqarish vositasi sifatida qayta talqin qilinishi kerak.

Huquqiy gnoseologiya esa bizga huquqiy haqiqatni qanday anglash va tushunish masalalarini o'rganish imkonini beradi. Mavjud adabiyotlarda bu institutlarning huquqiy anglanishi ko'pincha pozitivistik yondashuvlar bilan cheklangan, ya'ni ularning normativ huquqdagi ifodasi tahlil qilinadi, lekin huquqiy ongda qanday shakllanishi va qanday metodologik yondashuvlar orqali anglash mumkinligi ochib berilmaydi. Holbuki, V.S. Nersesyants ta'kidlaganidek, "huquqni faqat qonunchilik bilan cheklash uni falsafiy mohiyatidan mahrum etadi".

Huquqiy aksiologiya mezonlari doirasida esa, oila va mahalla institutlari qanday huquqiy qadriyatlarni ifodalaydi, degan savolga javob berish lozim. Aksariyat tadqiqotlarda bu institutlar ijtimoiy tartib, birdamlik va axloqiy nazorat vositasi sifatida tasvirlanadi. Biroq bu qarashlar ularning erkinlik, adolat, inson sha'ni kabi yuqori huquqiy qadriyatlar bilan qanday bog'liqligini chuqur ochib bermaydi. Masalan, mahalla institutini faqat "jamiyatni tartibda ushlab turuvchi" sifatida emas, balki fuqaroning o'zligini anglash, ijtimoiy-huquqiy subyektivligini shakllantirish maydoni sifatida talqin qilish mumkin. Mualliflar tomonidan mahalla institutining tarixiy shakllanishi va diniy asoslari to'g'risida "Islam dini keng tarqalgan davrdan boshlab mahalla diniy va huquqiy boshqaruvning markaziga aylangan" deb ta'kidlanadi. Biroq bu yondashuv mahallaning zamonaviy huquqiy mohiyatini talqin etishda chegaralangan bo'lib, uni diniy me'yorlar bilan cheklaydi. Filologik jihatdan bu yondashuv huquqiy hermenevtika talablari bilan ziddiyatga kiradi, chunki zamonaviy yuridik tafakkur huquqiy matnlarni tarixiy kontekstda emas, balki hozirgi ijtimoiy-haqiqat doirasida talqin qilishni nazarda tutadi. Oila va mahalla institutlariga oid hozirgi ilmiy qarashlar ularning ijtimoiy amaliy va tarixiy shakllanishini yoritish bilan cheklanmoqda. O'zbekiston huquqshunoslik maktabi ushbu institutlarni huquq falsafasi – ayniqsa, uning aksiologik, gnoseologik va ontologik yo'nalishlari nuqtai nazaridan qayta talqin qilish orqali ularning jamiyatdagi haqiqiy huquqiy mohiyatini anglashga xizmat qilishi lozim.

O'zbekistonda oila va mahalla institutlari jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan eng barqaror ijtimoiy tuzilmalar qatoridan joy oladi. Ularning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli ko'pchilik olimlar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa-da, ushbu institutlarning mohiyatini huquq falsafasi nuqtai nazaridan baholovchi tadqiqotlar yetarli emas. Oila va mahalla ko'pincha ijtimoiy nazorat mexanizmi yoki madaniy meros elementi sifatida talqin qilinadi. Masalan, G'aniyev "Oila va mahalla jamiyatdagi muvozanatni saqlovchi boshqaruv mexanizmlaridir" deya ta'kidlaydi. Biroq bu kabi funksional yondashuvlar ushbu institutlarning

ontologik va aksiologik mohiyatini yuzaga chiqara olmaydi. Avvalo, huquqiy ontologiya mezonlari asosida qaraganda, oila va mahalla institutlari mavjudlikning ijtimoiy-huquqiy shakllari sifatida talqin qilinmog‘i zarur. Ular tarixiy zarurat yoki ijtimoiy ehtiyoj mahsuli sifatida emas, balki huquqiy mavjudotning ifodasi sifatida tushunilishi kerak. Bu jihatni V.S. Nersesyants quyidagicha izohlaydi: “Huquq – bu erkinlikning shakllangan normativ ifodasidir” va “u mavjudlik tarzida jamiyat ongida yashaydi”. Shu nuqtai nazardan, mahalla va oila institutlari tarixiylik doirasida emas, balki erkinlikning ijtimoiy shakli sifatida qayta talqin qilinmog‘i lozim.

Ikkinchidan, huquqiy gnoseologiya mezonlariga asoslangan yondashuv shuni ko‘rsatadiki, mavjud yondashuvlarda oila va mahalla institutlari qonuniylik va normativlik orqali anglatiladi. Holbuki, Nersesyants ogohlantiradi: “Huquqni anglash faqat uning tashqi ifodasi (qonun) orqali emas, balki uning ichki mohiyati – axloqiy va erkinlik bilan bog‘liq manbasi orqali yuzaga chiqadi”. Bu fikrlar asosida, O‘zbekistonda mahalla institutining “fuqarolar yig‘ini” tarzida normativ tasvirlanishi ushbu institutni soddalashtirib, uni ijtimoiy ongdagi haqiqiy mazmunidan uzoqlashtiradi.

Uchinchidan, aksiologik yondashuv oila va mahalla institutlarini ijtimoiy qadriyatlar tashuvchisi sifatida emas, balki huquqiy qadriyatlarning real ifodasi sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Biroq amaldagi adabiyotlar bu institutlarning qadriyatlar kontekstidagi roli haqida sathiy mulohazalardan nariga o‘tmaydi. Nersesyants bu borada “Huquqiy qadriyatlar – bu faqat siyosiy yoki ijtimoiy emas, balki ontologik va aksiologik haqiqatdir” deya ta’kidlaydi. Shu bois, oila va mahalla institutlarini adolat, inson sha’ni, huquqiy tenglik kabi universal qadriyatlar kontekstida tahlil qilish – ularning haqiqiy huquqiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Nihoyat, huquqiy antropologiya bu institutlarning inson bilan ontologik bog‘liqligini tahlil qilishni nazarda tutadi. Oila va mahalla insonning ijtimoiy identifikatsiyasi, axloqiy o‘sishi va huquqiy madaniyat shakllanishining markazidir. Biroq mavjud yondashuvlar “institutning jamiyatdagi funksiyasi”ga qaratilgan bo‘lib, inson va huquq o‘rtasidagi ichki aloqani ko‘rsatmaydi. Nersesyants bu borada yozadi: “Huquq – insonni erkinlik asosida tashkil etuvchi vositadir, u ob’ekt emas, balki faol sub’ekt sifatida qaralishi zarur”. Oila va mahalla institutlari, demak, faqat tashqi boshqaruv vositasi emas, balki fuqaroning o‘z huquqiy ongini shakllantirish vositasidir.

O‘zbekistondagi oila va mahalla institutlarini tahlil qilayotgan ko‘plab tadqiqotlar bu institutlarni ijtimoiy-tarixiy va funksional yondashuvlar doirasida tahlil qiladi. Biroq huquq falsafasi mezonlari – ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya va antropologiya – nuqtai nazaridan qaralganda, ushbu yondashuvlar biryoqlama va chegaralangan ko‘rinadi. Shu bois, bu institutlarni faqat amaliy vosita sifatida emas, balki erkinlik va axloqiylikni mujassamlashtiruvchi huquqiy birliklar sifatida qayta baholash zarur.

O‘zbekistonda oila va mahalla institutining tarixi va rivojlanish bosqichlarini huquq falsafasi kontekstida tahlil qilish zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilgan holda olib borilishi lozim. Jumladan, bu muammoga yondashishda faqat ijtimoiy funksiyalar yoki tarixiy evolyutsiya doirasida emas, balki qonun va axloq, jamiyat va huquq o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalar kontekstida tahlil etish talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, mavjud yondashuvlarning ayrimlari takomillashuvga muhtoj bo‘lib, ayrim olimlarning qarashlari tanqidiy yondashuv orqali qayta ko‘rib chiqilishi zarur. Masalan, natural-huquqiy yondashuv tarafdorlari, xususan, Foma Akvinskiy tomonidan ilgari surilgan fikrga ko‘ra, “inson qonunlari axloqiy asosga ega bo‘lishi shart, aks holda ular qonun emas”. Bu yondashuvni O‘zbekiston sharoitiga tatbiq etganda, mahalla institutining tarixiy shakllanishida asosan ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar asos bo‘lganligi haqida xulosa qilinadi. Biroq, bu nuqtai nazardan har doim ham amaliy mexanizmlarning etarli darajada yoritilmaganligi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, F. Akvinskiyning “tabiiy qonunlar abadiydir” degan tezi mahalla tizimining dinamik evolyutsiyasi, jamiyatdagi o‘zgaruvchan ehtiyojlar bilan uyg‘unlashmaydi. Boshqa tomondan, G. V. F. Gegelning tarixiy-falsafiy yondashuvi, ya’ni “huquq – bu erkinlikning mavjudlikdagi shaklidir”, O‘zbekiston sharoitida oila va mahalla institutining rivojlanish bosqichlarini tushunishda yanada realistik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ammo Gegelning bu yondashuvi, ayniqsa mahallaning huquqiy institutsionalizatsiyasi davrida, o‘z-o‘zini boshqarish prinsipiga haddan ziyod yuklama berib, uning davlat tomonidan boshqariluvchi tizimga aylanish jarayonlarini e’tibordan chetda qoldiradi. Shu bois, Gegel yondashuvining idealistik xususiyati uni zamonaviy tahlilga to‘liq moslashtirishni cheklaydi. H.L.A. Xart tomonidan ilgari surilgan “qonun – bu ijtimoiy qoidalar majmui” degan kontseptsiya esa, oila va mahalla institutini huquqiy tizim doirasida tahlil qilish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Xartning “tan olish qoidasi” (rule of recognition) tushunchasi orqali oila va mahallaning qonunchilikdagi o‘rnini aniqlash mumkin bo‘lsa-da, Xartning huquqiy pozitivizmi jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarning qonun bilan integratsiyalashgan shakllarini to‘laqonli yoritmaydi. Mahalla institutining ma’naviy-axloqiy ildizlarini inobatga olmaslik esa, ayni nazariyaning O‘zbekiston kontekstida to‘liq tatbiq etilishiga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, Ronald Dvorkin tomonidan taklif etilgan “integritet nazariyasi” – qonunlar jamiyatning eng yaxshi axloqiy izohiga asoslanmog‘i kerak degan yondashuv – mahalla institutining qadriyatlar asosida shakllanishi va qonunchilikka singdirilishi uchun asosli pozitsiyadir. Biroq, Dvorkinning konsepsiyasi ko‘p hollarda amaliy-pedagogik vositalardan yiroq bo‘lib, qonun ijrochilari uchun aniq me’zonlarni taqdim etmaydi. Ayniqsa, o‘zbek huquq tizimida bu yondashuvda aniqlikning yetishmasligi qonun ijrosi va axloq o‘rtasidagi muvozanatni noaniq qoldiradi.

O‘zbekistonda oila va mahalla institutining huquqiy-falsafiy rivojlanishini to‘g‘ri talqin etish uchun yondashuvlar pluralizmini tan olish zarur. Faqat bitta nazariy maktabga tayangan holda masalaga yondashish, bu institutlarning murakkab tarixiy va ijtimoiy tabiatini to‘laqonli ochib bera olmaydi. Buning uchun huquq falsafasidagi turli maktablar – natural huquq, huquqiy pozitivizm, interpretivizm va sotsiologik yondashuvlar – sintez qilinishi, mahalla va oila kabi institutlarning zamonaviy huquqiy ongda tutgan o‘rni holistik tarzda yoritilishi lozim.

**Xulosa.** O‘zbekistonda oila va mahalla institutlari jamiyatning sotsial-huquqiy mohiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy tuzilmalar sifatida tarixiy taraqqiyot bosqichlarida nafaqat an’anaviy ijtimoiy nazorat funksiyasini, balki huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantiruvchi muhim omil sifatida ham namoyon bo‘lgan. Huquq falsafasi nuqtayi nazaridan, oila va mahalla institutlari subyektiv huquqiy ong bilan obyektiv huquqiy tartibot o‘rtasidagi vositachi bo‘lib, jamiyatdagi huquqiy legitimlikni ta‘minlashda g‘oyaviy va aksiologik zamin yaratadi. Oila instituti inson huquqlari va axloqiy qadriyatlarning tabiatiga daxldor bo‘lib, Kant tomonidan ilgari surilgan "insonni vosita emas, balki maqsad sifatida ko‘rish" tamoyiliga asoslanadi. Shu bois, oila shunchaki biologik birlik emas, balki axloqiy-huquqiy munosabatlarning barqaror sistemasi sifatida qaraladi. O‘zbek jamiyatida oilaning bu funksiyasi huquqiy tartibot bilan uyg‘unlashgan holda milliy qonunchilikda o‘z aksini topgan. Mahalla esa, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning mikrodarajadagi huquqiy va madaniy regulatori sifatida faoliyat yuritgan. U o‘z mohiyatiga ko‘ra Fikuyamaning “ijtimoiy kapital” konsepsiyasiga muvofiq tarzda ijtimoiy ishonch va huquqiy barqarorlikning asosiy manbaiga aylangan. Mahallaning funksiyasi zamonaviy huquq falsafasi nuqtai nazaridan fuqarolik jamiyati va davlat o‘rtasidagi vositachilikni amalga oshiruvchi vosita sifatida tavsiflanadi. O‘zbekistonda oila va mahalla institutlarining huquqiy evolyutsiyasi Sovet davri kollektivizm mafkurasi ostida markazlashgan tarzda cheklangan bo‘lsa-da, istiqloq yillaridan boshlab ular huquqiy subyekt sifatida qayta ijtimoiylashtirildi. Bu jarayon John Rawlsning "adolat sifatida tenglik" tamoyiliga asoslanib, ijtimoiy adolatni ta‘minlash vositasi sifatida ularning huquqiy maqomini mustahkamladi. Hozirgi bosqichda oila va mahalla institutlari huquqiy tizimda davlat tomonidan qonuniy kafolatlangan va konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘lgan ijtimoiy institutlardir. Ular milliy qonunchilikning tizimli elementlari sifatida huquqiy madaniyatni shakllantirishda Aristotelning "teleologik yondashuvi" asosida - ya‘ni har bir institutning maqsadga yo‘naltirilganligini inobatga olgan holda - o‘z funksiyalarini bajaradi.

Oila va mahalla institutlarining huquqiy-falsafiy talqini ularni faqat ijtimoiy institut emas, balki ijtimoiy-huquqiy ontologiya doirasida tahlil qilishni taqozo etadi. Bu jihatdan ular Hegelning "etik jamiyat" konsepsiyasida ilgari surilganidek, individual erkinlik va ijtimoiy tartibning dialektik birligini aks ettiradi. O‘zbekistonda oila va mahalla institutlari orqali amalga

oshirilayotgan huquqiy ijtimoiylashuv — bu huquqiy tafakkurning milliy zamin asosida shakllanishi jarayoni bo‘lib, u ijtimoiy muvozanatni va qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu borada ularning huquq falsafasidagi o‘rni zamonaviy normativ paradigmaning fundamental komponentlaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, oila va mahalla institutlari O‘zbekistonda huquqiy barqarorlikning ontologik va aksiologik asoslarini shakllantiruvchi, huquq falsafasining amaliy ifodasi bo‘lib, ular orqali shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi ijtimoiy kontrakt ongli ravishda mustahkamlanmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Babadjanov, B. (2004). Mahalla – o‘zbek jamiyatining ijtimoiy modeli. Sharq yulduzi, №2. 94–97.
2. Forobiy, A.N. Fozil shahar ahli haqida. – T.: Fan, 1993. – B. 41.; Navoiy A. Mahub ul-qulub. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991. – B. 64.
3. Yusupov U. Mahalla va oila institutining transformatsiyasi: sotsiologik tahlil. – T.: TDYuI, 2008. – B. 58–60.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – xalqchil taraqqiyot yo‘li. – T.: O‘zbekiston, 2020. – B. 33–35.
5. Urinboyev, R. (2011). Law, social norms and welfare as means of public administration: case study of Mahalla institutions in Uzbekistan. NISPAcee Journal of Public Administration and Policy, 4(1), 33-57.
6. Urinboyev, R. (2014). Is there an Islamic public administration legacy in post-soviet central Asia? an ethnographic study. Halduskultuur, 15(2), 157-178.
7. Insebayeva, S. (2017). Social capital and liberal democracy. In Social capital construction and governance in Central Asia: Communities and NGOs in post-Soviet Uzbekistan (pp. 97-115). New York: Palgrave Macmillan US.